

Abduloyev Ashraf Muzafarovich – o'qituvchi

Asatov Jasurbek Sayitkulovich talaba

Azarov Ibrohim Hasan o'g'li talaba

Jo'raqulov Fazliddin Faxriddinovich talaba

Mirzomurotov Maksudjon Farxod o'g'li talaba

*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti
"Milliy tadqiqot universiteti" Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti.*

Annotatsiya: *Bugungi kunda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish eng dolzarb, hammani to'qinlantirayotgan muammolardan biridir. O'tgan asrning oxiriga kelib inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlar muvozanatining buzilishi natijasida atrof-muhit, ekologik vaziyat keskin o'zgarishlarga yuz tutdi.*

Ushbu maqolada O'zbekistonda va Markaziy Osiyo mamlakatlarida ekologiya bilan bogliq muammolar va uning O'zbekistonning barqaror rivojlanishida o'rni y'oritib berilgan.

Kalit so'zlar: *BMT, Markaziy Osiyo, O'zbekiston respublikasi, orol dengizi, global, regional va mahalliy ekologik muammolar, iqlim va tabiiy resurslar.*

Ilk bor biologiya fanining bir qismi sifatida vujudga kelgan ekologiya sanoat, shaharlar, tabiiy resurslardan foydalanish ko'lamining kengayishi natijasida ko'proq ijtimoiylashdi va inson ekologiyasiga aylanib bormoqda. Oldingi davrlarda tabiiy sharoit va tabiiy resurslardan iqtisodiyotda qanday foydalanish masalalariga asosiy e'tibor qaratilgan bo'lsa, hozirgi davrda esa ishlab chiqarish tarmoqlarining atrof-muhitga ta'sirini baholash, tahlil qilish va shu asosda kelib chiqishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlash va bartaraf etish choralarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Hozirgi kunda butun dunyoda jumladan O'zbekistonda ham global, regional va mahalliy ekologik muammolar vujudga kelganligini alohida ta'kidlab o'tish zarurdir. Jumladan, global iqlim o'zgarishi, cho'llanish, Orol dengizi muammosi va boshqalarni sanab o'tishimiz mumkin. Mavjud ekologik muammolarning yechimini topish, bartaraf etish yo'llarni ishlab chiqish uchun ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda ekologik tendentsiyalarni kuzatib borish va shu asosda ijobiy xulosalar chiqarish talab etiladi. Ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish muammosi alohida e'tiborga molik vazifa bo'lib, hozirgi vaqtda mamlakatimiz tabiiy boyliklarini saqlab qolish va ularni kelajak avlodga yetkazish muhim masalalardan biridir. Tabiat bilan inson o'zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo'ladi, bu munosabatlar odamlarning ekologik madaniyatiga bog'liqdir. Tabiat qonuniyatlarini buzish, o'nglab bo'lmas ekologik falokatga olib kelishi muqarrardir. Misol tariqasida Sobiq Ittifoq davridagi ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish, eng avvalo tayyor mahsulot emas, balki,

qishloq xo‘jalik xom-ashyosini ko‘paytirish manfaatlarini ko‘zlagan ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga zid tadbirlar, oxir-oqibatda, Orol dengizi va Orolbo‘yi ekologik inqiroziga olib kelganligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqlarida bevosita global iqlim o‘zgarishi va Orol muammosiga to‘xtalib o‘tgan edi: “Davrimizning o‘tkir muammolaridan yana biri – global iqlim o‘zgarishlaridir. Bugungi kunda har bir mamlakat bu jarayonning salbiy ta‘sirini his etmoqda. Ming afsuski, bunday o‘zgarishlar Markaziy Osiyo taraqqiyotiga ham katta xavf tug‘dirmoqda.

Shulardan kelib chiqqan holda Orol bo‘ydagi ekologik muammolar naqadar jiddiy ekanligini ko‘rishimiz mumkin va bu muammolarni xalqaro hamjamiyat bilan birgalikda hal etish choralarini ishlab chiqish lozim.

2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasi atrof-muhitni muhofaza qilish kontsepsiyasiga muvofiq Orol dengizining qurigan tubida o‘rmonzorlar maydonini jami hududiga nisbatan 60 foizgacha yetkazish, Nukus, Urganch va Xiva shaharlari atrofida "Yashil belbog“ tashkil etish maqsadida tuzga chidamli, tez o‘sar saksovul, cherkez va qandim o‘simliklari ekish ishlari olib borilmoqda.

Tabiat komponentlari va hodisalarning o‘zaro aloqasi hamda bog‘liqligi turli xil ko‘rinishlarda sodir bo‘ladi. Buni o‘simlik bilan hayvonot dunyosi, tuproq bilan zaminning ustki yotqiziqlari, yog‘in miqdorining ko‘payib yoki kamayib borishi bilan o‘simliklar turi ham miqdor jihatdan o‘zgarib borishida kuzatishimiz mumkin. Bu o‘zgarishlar ko‘p jihatdan inson faoliyatining faollashuvi bilan bog‘liqdir.

Bugungi kunda global iqlim o‘zgarishi eng dolzarb ekologik muammolardan biridir. Iqlim o‘zgarishining oldini olishga qarshi jahon mamlakatlari birgalikda kurashishlari muhimdir. Bu borada 2015 yil 12 dekabrda Parijda Birlashgan Millatlar Tashkilotiniing iqlim o‘zgarishlari bo‘yicha doiraviy konventsiyasiga bag‘ishlangan konferentsiyaning 21-sessiyasida “Parij Bitimi” qabul qilindi va 2016 yil 4 noyabrda kuchga kirdi.

Iqtisodiyot rivojlanishi ko‘p hollarda tabiiy resurslarga bog‘liq. Turli resurslarning mavjudligi xalq xo‘jaligi tarmoqlarini muttasil rivojlantirib borishga imkon beradi. Bu borada ekologik tabiiy resurslarning ham o‘z o‘rni bor. Dunyo bo‘yicha yalpi ichki mahsulotning 35 foizidan ortig‘ini ekologik soha resurslari yetkazib beradi va aholi soni ortib borishi bilan bu raqam yana ortib boradi.

Bugungi kunda mustaqil o‘zbekiston yirik sanoat va agrar mintaqa bo‘lib, kelajakda dunyoga yuz tutgan mashinasozlik, energetika, kimyo, oziq – ovqat sanoati, transport majmuini yanada rivojlantirish ko‘zda tutulgan. Bunday ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi Respublikada ijtimoiy – ekotizmlarning holatiga muayan darajada salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish borasidagi asosiy strategik maqsadlar quyidagilar hisoblanadi:

Aholining sihat-salomatligi uchun qulay sharoit yaratish, beosferaviy muvozanatni saqlash; O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligi va barqarorligini ko'zlagan holda tabiiy resurslardan foydalanish qayta tiklanadigan tabiiy resurslar ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarining muvoznatini saqlash tiklanmaydigan resurslarni ishlab chiqarish, chiqindilardan oqilona foydalanish; regional va lokal darajalarda tabiatni qayta tiklanish hususiyatini tiklash; tabiatning daslabki turlari va ularning genofondini landshaftlarning xilma – xiligini saqlash.

Vujudga kelgan Orol dengizi muammosi bilan bog'liq halokatli ekologik – iqtisodiy va ijtimoiy ahvolni yaxshilash, Orol dengizini saqlab qolish maqsadida aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash. Orol bo'yi aholisini normal sanitar sharoitlar va ozuqa bilan ta'minlash uchun Markaziy osiyo davlatlari bilan birgalikda qisqa vaqt ichida yagona suv xo'jaligi siyosatini ishlab chiqish hamda har-bir Respublikaning Orol dengiziga quya oladigan suvi, ya'ni Orol bo'yidagi barcha tabiiy ko'llarni saqlab qolish kabi ishlar rejalashtirilgan.

Atmosfera havosini muhofaza qilishning asosiy yo'nalishi shahar va aholi yashaydigan punktlarda atmosfera havosining sifatini yaxshilash, keyinchalik sanitar-gigienik qoidalarga rioya qilish buning uchun Respublikamizning barcha hududlarida chiqindilarni kamaytirish, kam chiqindili texnologiyalarni yaratish, chang to'plovchi va tozalovchi yangi qurilmalarni yaratish va ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish eskirgan qurilmalarni yaxshilash bilan almashtirish va boshqalar. Orol dengizining qurishi iqlim o'zgarishiga ham sababchi bo'ldi. Qurg'oqchilik tufayli iqlimning keskin kontinentalligi ortib ketdi. Dengiz va quruqlik o'rtasidagi haroratning o'zgarishi, shamol tezligining ortishi, suvning to'liq inlanish hodisasini kuchaytirishiga olib keldi.

Sut emizuvchi hayvonlar va qushlar kamayib ketdi. Qurigan maydonlar xavfli kasalliklarni tarqatuvchi kemiruvchi bilan to'lib bormoqda. Orol bo'yining sanitar-epidemiologik ahvoli nihoyatda og'irlashmoqda. Agar zudlik bilan tabiatda vujudga kelayotgan muammolar hal qilinmasa insoniyat va butun mavjudodning hayoti xavf ostida qoladi. Biz tabiatga qarammiz, biz tabiatsiz yashay olmaymiz, shunday ekan biz barchamiz tabiatni asrab avaylashimiz, uning har-bir qarich yerini ko'z qorachig'iday asrashimiz, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishimiz, har-bir tomchi suvni tejab ishlatishimiz, tabiat haqida doimo g'amxo'rlik qilishimiz lozim.

Tabiat va jamiyat bir butundir. Ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning keskinlashuvi ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Mamlakatimizda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi davlat siyosati darjasida qaraladi. Sohaga oid ko'plab qonun, qarorlar va kontseptsiya ishlab chiqilgan va davlat dasturi qabul qilingan.

O'zbekiston ekologiyasini yaxshilash uchun, mamlakatimizdagi iqtisodiy ahvolni yaxshilash, ekologik tanazzulning oldini olish uchun xalqimiz orasida qadimda ma'lum

bo'lgan ekologik madaniyatni tiklashimiz, tarixni yaxshilab o'rganishimiz hamda undan hozirgi sharoitda foydalanish imkoniyatlarini qidirib topishimiz kerak.

Xulosa

O'zbekistonda ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik rivojlanish, barqaror taraqqiyotni ta'minlab beradigan uchta asosiy yo'nalishlardir. Barqaror taraqqiyotga erishish sohalarda qator chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Ekologiya sohasidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi barqaror rivojlanishning garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulloyev, A. M., Sattorov, S. Y., Sulaymonov, M. V., Abdualiyeva, S. H., Ochilov, A. B., & Ismatov, T. A. (2022). Foreign Experience in Land Use Management. Indonesian Journal of Innovation Studies, 18.
2. Muzaffarovich, A. A., Yarashovich, S. S., & Hamdamovna, A. S. (2022). SUVDAN OQILONA FOYDALANISHDAGI MUAMMOLAR. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 911-915.
3. Sattorov, S. Y., Abdulloyev, A. M., Ochilov, A. B., & Ismatov, T. A. (2022). Database in Land Resource Management. Indonesian Journal of Innovation Studies, 18.
4. Sattorov, S. Y., Abdulloyev, A. M., Ochilov, A. B., & To'xtamishov, A. B. (2022). Importance of Remote Sensing Data in The Study of Land Resources. Indonesian Journal of Innovation Studies, 18.
5. Сатторов, Ш. Я. (2022). ФОРМИРОВАНИЕ БАЗЫ ГЕОДААННЫХ ОБЪЕКТОВ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ И ГЕОВИЗУАЛИЗАЦИЯ. Current approaches and new research in modern sciences, 1(2), 9-15.
6. Boltavich, T. X. A., Akbar O'g'li, I. T., Muzaffarovich, A. A., Yarashovich, S. S., & Valijonovich, S. M. (2022). QURILISH JARAYONIDA INJENERLIK GEODEZIYASINING ROLI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 904-910.
7. Boymurodovich, O. A., Akbar O'g'li, I. T., & Muzaffarovich, A. A. (2022). QURILISHDA GEODEZIK ISHLARNI TURLARI, TARKIBI VA ULARNI KUZATISH. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 894-898.
8. Boymurodovich, O. A., Akbar O'g'li, I. T., & Muzaffarovich, A. A. (2022). QURILISHDA GEODEZIK ISHLARNI TURLARI, TARKIBI VA ULARNI KUZATISH. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 894-898.
9. Yarashovich, S. S. (2021). Development of Space Data Model in Passage of Pasture Land. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(1), 34-37.

10. Adizov Shuhrat Bafoyevich. (2022, November 30). VOBKENT TUMANIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA FERMER XO'JALIKLARI FAOLIYATI USTIVORLIGINI YARATISH. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7421261>

11. Shuhrat Bafoyevich, A. (2022). DEVELOPMENT OF WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF THE USE OF FARM LAND. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 1(11), 93–96. Retrieved from <http://interonconf.org/index.php/idre/article/view/280>

12. Bafoyevich, A. S. (2022). FERMER XO'JALIGI YER MAYDONLARI O'LCHAMLARINI MAQBULLASHTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.

13. Shukhrat Bafoyevich Adizov. (2022). SOCIO-ECONOMIC ASPECTS OF LAND USE IN FARMING. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 1(8), 60-70.

14. Bafoyevich, A. S. . (2022). LEGAL BASIS OF FARMERS ACTIVITY IN UZBEKISTAN AND ANALYSIS OF THE STAGE OF ITS DEVELOPMENT. "ONLINE - CONFERENCES" PLATFORM, 112–114. Retrieved from <http://papers.online-conferences.com/index.php/titfl/article/view/775>

15. Uzbekiston Respublikasi Prezidentining "Uzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha Harakatlar strategiyasi tugrisida"gi Farmoni. T. ; "Adolat" 2018,27-bet.

16. Uzbekiston Respublikasi "Ta'lim tugrisidagi qonun"

17. Uzbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash" milliy dasturi.

18. Tursunov X.T., Raximova T.U. Ekologiya - T.: "Chirnr ENK", 2006.

19. Barakaevich, K. S., Ramazonov, B. R., & Jurakulovich, X. R. (2020). SUV RESURSLARINING TANQISLIGI-GLOBAL EKOLOGIK MUAMMO. Biologiya va ekologiya elektron jurnali, 4(2).

20. Qishloq xo'jaligida ekologik muammolar va ularning yechimi mavzusidagi Respublika miqyosidagi xorijiy olimlar ishtirokida onlayn ilmiy-amaliy anjuman to'plami Buxoro, 2020 yil 17-18 dekabr